OILAVIY TARBIYANING BOLA KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI

Kurvonboyeva Oqibat Shuxratjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
Pedagogika fakulteti pedagogika yo'nalishi Ped-AU-26 guruh talabasi

Ushbu maqolada oilaviy tarbiyaning bola kamolotidagi ahamiyati, ularning farzand tarbiyasidagi o'rni hamda bolaning yetukligini ta'minlovchi imkoniyatlar yoritilgan. Shuningdek, oilaviy munosabatlar,ahillik,o'zoro suxbat va muloyimlik kabi fikrlar ham tahlil qilingan. Maqolada ota onaning bir necha vazifalari va farzand tarbiyasi haqida tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, imkoniyatlar, tarbiyalash jarayoni, oilaviy munosabatlar.

Hech kimga sir emaski, hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan yurtimizda farzand tarbiyasi va uning kamolati dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Albatta, oila tarbiyasi bola kamolotining asosiy poydevoridir. Zamonaviy tarbiya jarayonida bolalarga faqat so'z orqali yetkazish bilan chegaralanib qolmay, balki amalda ham ko'rsatishimiz, hadislardan parcha aytishimiz va ularni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Zamonaviy tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan oilaviy munosabatlar va o'zaro shirin suxbatga bog'liq. Tarbiya usullari bilan bir qatorda sharq va g'arb mutafakkirlarining gaplari ham farzand kamolatini oshirishga hissa qo'shadi. Masalan, Kaykovusning: "Yaxshi xulq- eng buyuk meros" va Yusuf Xos Hojibning :" Bolaning otasi zimmasidagi burchi - unga chiroyli ism qo'yish, yaxshi tarbiya berish, to'g'ri yo'lni ko'rsatish va ilm o'rgatishdir".

Oilaviy munosabatlar:ota-ona , shuningdek, farzandlarning tarbiyaviy muloqoti va o'zaro hurmatga asoslangan . Bu holatda bola shunchaki eshitish bilan emas, balki amalda ko'radi va sinab ko'radi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi : bolani kamol toptirish , katta-yu kichikni hurmat qilish, axloqli va mehribon bo'lishidan iborat.

Tarbiya berish jarayonida turli metodlardan ham foydalanish mumkin. Masalan,

1.

Namuna ko'rsatish: Kattalar dan bir gap qolgan " Qush inida ko'rganini qiladi". Bola ota- onasining harakatlarini ko'rib o'rganadi. Shuning uchun ota- ona o'zining xulq-atvori, odobi bilan farzandiga namuna bo'lishi kerak.

2.

Tushintirish metodi: Bu metod orqali bola o'z xatti-harakatlarini sabab va oqibatlarini anglaydi.

3.

Odatlantirish metodi: Bu metod orqali bolada odatlarni doimiy takrorlash orqali shakllantirishi mumkin.

4.

Nazorat qilish metodi: Bu metodda farzandni haddan tashqari emas, unga to'g'ri yo'l ko'rsatish lozim.

5.

Kitob o'qish va hikoya qilish metodi: Hikoyalar, maqollar va ertaklar bilan bolaga ezgulik , halollik , mehr- oqibat va hurmat kabi fazilatlarni singdirish mumkin.

Biroq bu kabi metodlardan foydalanish uchun ota-onada tajriba bo'lishi lozim. Aks holda bolada kutilgan natija ko'rinmasligi mumkin.

Umuman olganda oilaviy tarbiyada kechirimlilik, mehr-muruvvat, ahillik kabi fazilatlardan oqilona foydalanish, bola tarbiyasida ijobiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga ahillikni ham mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy tarbiyaning bola kamolotidagi ahamiyati juda katta. Oilaviy tarbiya bolaning fikrlashini, axloqini , ta'lim va tarbiyani, kamtarlikni va rahimdillik kabi tuyg'ularni rivojlanishiga yordam beradi. Bola tarbiyasini yuksaltirish uchun , oila tarbiya berish jarayonini maqsadli ravishda tanlashi kerak.

Shunday ekan, bola kamolotini tarbiyalashda bolani yoshini inobatga olishimiz lozim.